

QADIMGI XORAZM DAVLATI TARIXIGA DOIR

Hasanboyev To'raqul Foziljon o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti o'qituvchisi,

Murodova Rahima Javhar qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qadimgi Xorazm davlatining shakllanish jarayoni, uning siyosiy tuzilishi, urbanizatsiya va irrigatsiya tizimlari arxeologik hamda yozma manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Ko'zaliqir, Qal'aliqir, Oyboyirqal'a, Qoyqirilganqal'a va Tuproqqal'a kabi yirik yodgorliklarning tarixiy-madaniy ahamiyati ilmiy izohlanadi. Shuningdek, maqolada Xorazm sivilizatsiyasining Markaziy Osiyo tarixidagi o'rni va insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasini kompleks yondashuv orqali yoritiladi.

Kalit so'zlar: Qadimgi Xorazm davlati, Katta Xorazm davlati, Avesto kitobi, Amudaryo o'zanlari, Ko'zaliqir yodgorligi, Qal'aliqir va Oyboyirqal'a, Tuproqqal'a shahar yodgorligi, irrigatsiya tizimi, zardushtiylik dini, arxeologiya tadqiqotlari, yozuv namunalari.

Markaziy Osiyoning qadimiy sivilizatsiyalari ichida Xorazm vohasi alohida ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, u o'zining geografik joylashuvi, sug'orish tizimlari, mustahkam mudofaa inshootlari, urbanistik madaniyati hamda yozuv tizimiga ega bo'lgan ilk davlat tuzilmalari bilan ajralib turadi. Qadimgi manbalarda Xvarizam (Avesto), Xuarazmish (fors), Xarasmie (yunon) kabi nomlar bilan tilga olinadigan ushbu hudud O'rta Osiyoning qadimgi davlatchilik makonlaridan biri bo'lib, uning tarixiy taraqqiyoti nafaqat mintaqa, balki jahon sivilizatsiyasi rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan.[1]. Arxeologik tadqiqotlar, yozma manbalar va etno-madaniy

qatlamlarning o'rganilishi Qadimgi Xorazm tarixini chuqur ilmiy tahlil etish imkonini bermoqda.

Quyi Amudaryo atrofida shakllangan Xorazmda arxeologik qatlamlar mil. avv. IX–VIII asrlarga mansub madaniy izlarni namoyon qiladi[2]. Bu davrga oid Amirobod madaniyati Xorazm hududida dasht va dehqonchilik an'analari birgalikda rivojlanganligini ko'rsatadi. Xorazmning tizimli o'rganilishi arxeolog olim S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi faoliyati bilan bog'liq bo'lib, bu ekspeditsiya Qadimgi Xorazmning moddiy-madaniy merosini ilmiy asosda qayta tiklashda ulkan rol o'ynadi. Tolstov “Ar'yonem Vaychax” (Avestoda tilga olingan muqaddas yer) aynan Xorazm bo'lganini asoslab, qadimgi Daitiya daryosini Amudaryo bilan bog'ladi[3].

Gerodotning ma'lumotlari Xorazmning sug'orish tizimlari yuqori darajada rivojlangan hudud bo'lganini ko'rsatadi. U Oks daryosi (Amudaryo) ustida qadimiy to'g'on qurilgani haqida xabar berib, bu yerda kuchli agrar-sivilizatsiya mavjud bo'lganini ta'kidlaydi[4]. Bu ma'lumotlar ba'zan “Katta Xorazm” nazariyasi bilan bog'lanadi, ya'ni qadimda Xorazm vohasi Amudaryodan janubdagi keng hududlarga ham ta'sir o'tkazgan, degan qarashlar shakllangan. Shunga qaramay, zamonaviy arxeologiya bu nazariyani to'liq tasdiqlamaydi; ammo Xorazmning qadimiyligi va yuksak madaniy salohiyatiga oid dalillar juda ko'p.

Abu Rayhon Beruniy “Osorul-boqiya” asarida Xorazmning ilk sulolalari haqida rivoyatlar keltirib, afsonaviy Siyovushni Xorazm tarixidagi eng qadimiy siyosiy shaxs sifatida tilga oladi. Siyovushning Turonga kirib kelishi mil. avv. XII asrlarga taalluqli deb berilishi afsonaviy bo'lsa-da, Xorazmda juda qadimiy siyosiy an'analarni mavjud bo'lganligi haqidagi fikrni mustahkamlaydi[1].

Arxeologik dalillar Xorazmda ilk davlatlik tizimi mil. avv. VI–IV asrlarda shakllanganini ko'rsatadi. Ko'zaliqir, Qal'aliqir, Oyboyirqal'a, Dingilji kabi yirik yodgorliklar ushbu davrga mansub bo'lib, ular Xorazmning urbanistik, harbiy va diniy hayotini aks ettiradi. Ko'zaliqir yirik mudofaa devorlari, saroy majmuasi, otashkada va yashash hududlari bilan Xorazmda markazlashtirilgan davlat boshqaruvi mavjud

bo'lganini ko'rsatadi[1]. Qal'aliqir devorlari murakkab labirint tarzida qurilgan bo'lib, bu istehkom Ahamoniylar bilan qisqa muddatli aloqaning mavjud bo'lganidan dalolat beradi[3].

Oyboyirqal'ada topilgan eng qadimgi Xorazm yozuvi xum sirtiga bitilgan belgi bo'lib, u oromiy yozuvining lokal varianti sifatida shakllangan dastlabki Xorazm yozuvini ifodalaydi[5]. A. Livshits tadqiqotlariga ko'ra, bu yozuv Xorazmda yozma madaniyat mil. avv. V asrdayoq mavjud bo'lganini tasdiqlaydi. Qoyqirilganqal'a astronomik kuzatuvlar olib borilgan diniy-ma'muriy markaz bo'lib, uning arxitekturasida vohaning diniy marosimlar tizimi rivojlanganligini ko'rsatadi[3].

Tuproqqal'a Kushonlar davriga oid eng yirik saroy-komplekslardan biri bo'lib, bu yerdan topilgan 140 dan ortiq yozma hujjatlar, yog'och va teriga bitilgan matnlar, "Podsholar zali" va "Ohular zali" kabi badiiy bezaklar Xorazmning yuksak darajadagi saroy madaniyatiga egaligini tasdiqlaydi[3]. Tadqiqotlar Tuproqqal'a diniy-saroy marosimlari markazi bo'lganini, siyosiy poytaxt esa Oqshaqonqal'a hududida joylashgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Xorazm sivilizatsiyasining shakllanishiga migratsion jarayonlar, ayniqsa sak qabilalarining mil. avv. VII asrlarda vohaga kirib kelishi ham ta'sir ko'rsatgan. Quysisoy va Sakarchaga mo'zorroq'rg'onlari topilmalari saklar va mahalliy dehqonchilik bilan shug'ullangan aholi o'rtasidagi madaniy aralashuvni isbotlaydi[5]. Xorazmliklar etnik jihatdan baqtriyaliklar, saklar va mahalliy aholi aralashuvining murakkab tarixiy natijasidir.

Xorazmning tarixiy-madaniy merosi o'zining sug'orish tizimi, shaharsozlik an'analari, diniy marosimlari, amaliy san'ati, yozuv tizimi bilan Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining shakllanishiga beqiyos hissa qo'shgan. Xiva, Urganch, Hazorasp kabi yirik shaharlar poydevori ham ana shu qadimgi madaniy qatlam asosida shakllandi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Qadimgi Xorazm davlatining tarixiy rivojlanishi, moddiy va ma'naviy madaniyati, irrigatsiya tizimlari, shaharsozlik yodgorliklari, yozma manbalar va arxeologik topilmalari ushbu vohani O'rta Osiyo

sivilizatsiyasining eng qadimgi va muhim markazlaridan biri sifatida namoyon etadi. Xorazmning sug'orish texnologiyalari, urbanistik merosi, diniy-falsafiy qarashlari, mahalliy yozuvi va siyosiy tizimi jahon madaniy merosining ajralmas qismiga aylangan. Bugungi kunda Xorazm nafaqat O'zbekiston tarixida, balki umuman insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Qadimgi Xorazm yodgorliklarining o'rganilishi mintaqaning davlatchilik tarixini chuqur anglash, etnomadaniy jarayonlarni tiklash hamda Sharq qadimiy sivilizatsiyalarining umumiy manzarasini to'ldirishda beqiyos ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Qadimgi Xorazm davlati tarixi". Buxoro. 2011. 2-3-betlar.
2. A. Sagdullayev. O'zbekiston tarixi. Toshkent. 2020. 158-162-betlar.
3. S.P. Tolstov. Drevniy Xorezm. Moskva. 1948.
4. A. Sagdullayev. Vatan tarixi. Toshkent. 2016. 47-49-betlar.
5. N.A. Egamberdiyeva. Arxeologiya. Toshkent. 2011. 98-107-betlar.
6. A. Asqarov. O'zbekiston tarixi. Toshkent: 2005. 24-bet.
7. A. Sagdullayev. O'zbekiston tarixi I. Toshkent. 2018. 135-139-betlar.